

Yangilanish faslida

Bahor fasli yasharish, yangilanish fasli hisoblanadi. Bu fasl kirib kelishi bilan oq, hududlarda obodonlashtirish ko'kalamzorlashtirish ishlari boshlanadi.

Hozirda xuddi shunday munosabat bilan yurtimizning har bir joyida obodonlashtirish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

2018-yilning 10-mart sanasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining yoshlar ittifoqi tizimidagi faol talabalari "Biz navro'zga tayyormiz" shiori ostida Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan "Qizmozor" qabristonida ishchi guruh sifatida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdilar hamda atrofni xazonlar, ortiqcha chiqindilardan tozaladilar.



Institut yoshlar ittifoqining matbuot yo'nalishi sardori U.Manzirboyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov